

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nuring xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabbilar.....	469
TILSHUNOSLIK	
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'rabyeva	
Farg'ona viloyati toponomilarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'Ichov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	



УО'К: 2-37:2-12

DINIY USLUB SHAKLLANISHINING ANTROPOTSENTRIK VA KOGNITIV ASOSLARI**АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ И КОГНИТИВНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНОГО СТИЛЯ****ANTHROPOCENTRIC AND COGNITIVE BASIS OF RELIGIOUS STYLE FORMATION****Amonturdiyeva Shoira Ravshanovna**

Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liq ekanligi, tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratish zaruratini paydo qilganligi ta'kidlangan. Diniy matnlardagi shukr kontseptini lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что формирование антропоцентрической парадигмы связано с изучением фактора личности носителя языка – говорящего, а возникновение антропоцентрического поворота в лингвистике обусловило необходимость структурализма оставить в стороне принцип изучения языка "для себя и для себя" и сосредоточить свое внимание на личностном факторе. Концепция благодарения в религиозных текстах была проанализирована на основе лингвокогнитивного подхода.

Abstract

This article emphasizes that the formation of an anthropocentric paradigm is associated with the study of the personality factor of a native speaker, and the emergence of an anthropocentric turn in linguistics necessitated structuralism to leave aside the principle of learning a language "for oneself and for oneself" and focus on the personal factor. The concept of thanksgiving in religious texts has been analyzed on the basis of a linguocognitive approach.

Kalit so'zlar: antropotsentrik paradigma, diniy uslub, til sohibi, kontsept**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, религиозный стиль, обладатель языка, концепт**Key words:** anthropocentric paradigm, religious style, language owner, concept**KIRISH**

Ma'lumki, XXI asr boshlaridan dunyo tilshunosligida til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda yuzaga chиqa boshladи. Unga ko'ra, til birliklari faqatgina semantik-sintaktik jihatdan emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida tadqiq etiladigan bo'ldi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi [1]. Olimlar ayni tamoyil orqali tildan foydalanuvchi bu shaxs hisoblanishi va nutq jarayonida u faol obyekt sanalishiga urg'u berishdi.

Ayni paytda tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan ildiz otdi [2]. *Antropotsentrizm* so'zi yunoncha *anthropos* – odam hamda lotincha *centrum* - markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan [3]. *Antropotsentrizm* termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan

qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi[4]. Ta'kidlash kerakki, antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi uning egasi bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Ma'lumki, nutqiy muomala matn orqali yuzaga chiqadi, lisoniy shaxsnинг nutqiy qobiliyatni matnning u yoki bu turi orqali namoyon bo'ladi. Ko'plab tadqiqotchilar murakkab hodisa hisoblangan matn tadqiqida so'zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – retsipient) dan iborat uchlik asosiy obyekt bo'lishi lozimligini ta'kidlashadi[5]. Nutq vaziyatiga mos funktional uslublar doirasida matn yaratishda ham ana shu uchlik muhim sanaladi. Jahon tilshunoslida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslilik, lingvokul'turologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi matn yaratilishi hodisasining talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslilikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Prof. Sh.Safarov antropotsentrik paradigmanning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmanning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslilik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi" [6]. Ana shu urinishlar bugun nafaqat dunyo tilshunoslida, balki o'zbek tilshunosliga ham tadbiq qilinmoqda.

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslilikda antropotsentrik paradigmanning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi" [7]. Darhaqiqat, insonga xos barcha jihatlarni uning tili va nutqi orqali anglash mumkin. Shaxs qobiliyatni unga berilgan nutqiy idrok orqali yuzaga chiqadi. antropotsentrik paradigmanning bosh maqsadi ham tildan foydalanuvchi insonni asosiy o'ringa chiqarishdir.

Tilshunoslilikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi[8]. Aytish joizki, ilmiy paradigmaga "til sohibi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslilikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi [9]. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslilik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslilik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

Aytish kerakki, XX asrda ma'lum tarixiy jarayonlar tufayli tildagi diniy leksika o'z dolzarbligini yo'qotgan holda tilning nofaol qatlamidan o'rinni oldi.

Ma'lumki, kognitologiya o'z mohiyatiga ko'ra semantika bilan uzviy bog'liqidir. A.V.Kravchenkoning fikriga ko'ra "...kognitiv tilshunoslilik o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi" [10]. Jahon tilshunoslida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga suyangan holda muayyan shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili sohiblarining "tafakkur grammatikasi"ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois islom diniga amal qiluvchi o'zbek imomi yoki diniy muassasa vakilining nutqini tinglaganimizda, islom dinining g'oyalalarini o'zbek mentaliteti, xalqning urf-odati va an'analariga singib ketganligini ular bayon qilayotgan tushunchalar orqali anglaysiz. Har bir tushuncha mohiyatini anglash insonni bilimlarini kengaytirib, taffakkur olamini boyitadi. Bilamizki, islom dini ezgu g'oyalalar, insonni komillikka yetovlovchi go'zal tushunchalarga asoslangan. Shunga ko'ra, har bir tushunchaning mohiyatini anglagan shaxsda diniy e'tiqod, Allohrning qudrati, u buyurgan amallar va oxirat dunyosiga ishonch paydo bo'ladi, oxiratga iymon keltiriladi. Hech birimiz Allah va g'ayb dunyosini, farishtalarni ko'rmaganmiz, ammo eshitiganlarimizni tafakkur qilgan holda ishonch va e'tiqod paydo bo'ladi bizda. Ayni o'rinda kognitologiyaga ehtiyoj seziladi. Kognitiv tilshunoslilik *kognitiv faoliyat* tushunchasi bilan uzviy

TILSHUNOSLIK

bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir [11].

Har bir xalqda din haqidagi tasavvurlar yoshlikdan shakllanadi, masalan bola ota onasini namoz o'qiganini ko'radi, dasturxon atrofida *bismilloh* va *omin* deyilishini o'rganadi, Alloh haqida dastlabki tushunchalarni kattalardan eshitadi. Bu orqali uning ham diniy tushunchalari paydo bo'ladi, keyinchalik katta bo'lganlari sari Alloh va uning qudratiga ishonch, e'tiqod paydo bo'ladi. Islom dining ayrim tushunchalari umumiy bo'lsa-da, ayrimlari e'tiqod qiluvchi xalqning tasavvuri va tushunchasi orqali tilda turlicha aks etadi. Masalan, Qur'oni qarim musulmonlarning muqaddas kitobi sanaladi va uning nomi o'zgarmaydi. Ammo u xalqlarning lisonida, tildagi ifodasida obrazli ifodalanishi mumkin. Misol uchun, Tafsir-Qur'onning o'zbekcha tarjimasi sanaladi. O'zbeklar tafsir deganda Qur'oni karimni tushunadi. Yoki *muqaddas kitob*, *muqaddas kalom*, *buyuk kalom* birliklari xalqimiz tasavvurida Qur'oni gavdalantiradi.

Allohnинг elchilari, ya'ni payg'ambarlarning soni ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo *oxir zamon payg'ambari*, *Allohnинг suyukli elchisi* tushunchasi barcha xallarda Muhammad s.a.vni yodga soladi. Ta'kidlash keraki, islomiy tushunchalarni musulmon olami vakillari qanday idrok qilsa, o'zbeklar ham ularni shunday tushunadi.

Shu tariqa "diniy kognitologiya" yuzaga keladi. Jahon tilshunosligida *diniy kognitologiya* yo'nalishi mavjud bo'lib, bu boradagi dastlabki g'oyalar 1975 yilda Den Sperber tomonidan ilgari surilgan[12]. 2000 yildan boshlab mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning salmog'i ham ortdi.

Aytish kerakki, so'ngi yillarda o'zbek tilshunosligida ham diniy kognitologiya borasida bir qancha tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Masalan, tadqiqotchi Sh.Mirzayeva "Diniy matnlarda "Sabr" kontseptining lingvokognitiv tadqiqi" mavzusida izlanish olib borib, mazkur kontseptni lingvokognitiv yondashuv asosida tahlilga tortgan. Olima diniy matnlarda sabr kontseptining eksplitsit hamda imlitsit voqelanishi va u matnning semantik-sintaktik tuzilishidaacosiy yadro element ekanligini ochib bergan[13]. "Sabr" kontsepti semantik maydonini kengaytiruvchi kontseptosferalar qanoat, vazminlik, o'zini tuta bilish, bosiqlik, totuvlik, barqarorlik, muloyimlik, ezgulik, bag'rikenglik, bardoshlilik, halimlik singari leksemalari islom dinining muqaddas kitoblarida keng qo'llanilgan. Bu kontseptosferalar kontseptual tuzilmani tashkil qiladi hamda nutqda uslubiy vazifani bajaradi. Qur'on Karim suralarinig ayrimlarida sabr leksemasi ideografik sinonimlar bilan ham ifodalangan. Masalan, *qanoat-iropa*, *bardosh-toqat*, *vazminlik-og'irlilik*, *shukurona-minnatdorchilik* singari.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, islom dinida sabr kontsepti insonning ma'naviy sog'alomligini ko'rsatuvchi kognitivlikni ifodalovchi asosiy tushunchalardan biri bo'lgan freym bilan bog'lanadi". ... har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'lib [14] "matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi[15]. Sabr leksemasi bilan bog'liq freymlar ham islomning muqaddas kitoblarida turli shakllarda qo'llanilgan. Chunki islom ta'lilotida sabr leksemasi muqaddas Qur'onu Karimning barcha suralarida bayon etiladi. Masalan, "Albatta, sabr qiluvchilarga ajrlari hisobsiz, to'liq berilur" ("Zumar" surasi, 10-oyat).

"Albatta, Biz sabr etganlarni qilib yurgan amallarining eng go'zaliga beriladigan ajr ila mukofotlarmiz" ("Nahl" surasi, 96-oyat). "Va sabr qilganliklari uchun ularni bog'urog' va ipaklar bilan mukofatladi" ("Inson surasi, 12-oyat).

"(Har bir) inson ziyonda (baxtsizlikda)dir! Faqat imon keltirgan va solih amallarni qilgan, bir-birlariga haqiqatparvar bo'lishni tavsiya etgan va bir-birlariga sabrli bo'lishni tavsiya etgan zotlarga bundan mustasnodirlar" (Asr, 2– 3); "Sabr qiling! Bas, albatta, Alloh ezgu ish qiluvchilar mukofotini zoe qilmagay" (Hud, 115).

"Sabr" kontseptining freym strukturasi Qur'on va hadislarda insonda har qanday og'ir, mashaqqatli, ruhiy tushkunlik vaziyatlarida ham o'zini yuqotmaslik, aqliy bilim, mustahkam iroda, vazminlik, bag'rikenglik, ruhiy tetiklik, ayni chog'da, Allohnинг mehribonligiga ishonch belgilarini namoyon etadi. Bu o'rinda, tabiiyki, sabr kontsept freymi matnda Yaratganning amri bilan insondag'i tafakkur, ruhiyat, hatti-harakat va boshqa semalarning uyg'unligini ifodalaydi [16].

D.Yuldasheva bolalarga xos matnlarda mavjud allyuziv nomlarni xalqning madaniy taraqqiyotiga, ma'lum voqeliklarga ishora qilishi bilan ajralib turishini tadqiq etar ekan, bunday nomlar qatnashgan matnni tushunish uchun bilim va muayyan voqelikdan xabardor bo'lish zarurigini ta'kidlaydi hamda Shoiring yuqoridaq she'riy satrlarini tushunish uchun o'quvchi Qur'oni

karimda keltirilgan “Nuh” surasi yoki Nosiruddin Burhoniddin Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asaridagi “Hazrati Nuh alayhissalom voqealari” mazmuni bilan tanish bo’lishi kerakligi xususida fikr yuritadi. [17]. Sh. Yusupova ham “O’zbek tiliga xos asosiy diniy kontseptlar haqida” mavzusidagi maqolasida diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar bilan birga insonlarning hayotiy qoidalari va axloqiy normalarini yaratishga xizmat qilishini ta’kidlab, dunyoni anglashda tilning ahamiyati va o’zbek tiliga xos asosiy diniy kontseptlarni lingvokognitiv tahlil qilgan. Maqolada diniy tushunchalar, kontseptlar va matnlar inson ongida qanday reprezentatsiyalashishi, ya’ni qanday anglanishi va bunda lisoniy vositalarning tutgan o’rnini yoritib berilgan [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz ham tadqiqotimizda diniy matnlardagi *shukr* kontseptini lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qildik. Qur’oni karimda shukr so’zi 106 marta qo’llangan bo’lib, uning ma’nosı - berilgan ne’matlar, yaxshiliklar uchun asosan Allohga minnatdorchilik bildirish bulib, u biror yaxshilik yoki ehson muqobiliga aytildi. SHukr qilish uchun maqtaluvchi tomonidan biror ne’mat ato etilgan bulishi shart emas, balki maqtovga loyik, bulishining uzi ham kifoyadir. Olimlarning ta’kidlashicha, inson yoki boshqa narsalar maqtalganda “madh” so’zi ishlataligani ma’qul. Zero, u maqtaluvchida mavjud bo’lmagan yaxshi sifatlarni ham qo’shib maqtashdir. «**Ey, Muso! Men seni odamlar uzra risolalarim (Tavrot bitiklari) va gaplashganim bilan mumtoz (imtiyozli) etdim*. Bas, senga bergenimni (qabul etib) ol va shukr qiluvchilardan bulgin!» - dedi (Allox.). (A’rof surasi 244.)**

“SHukr” kontsepti semantik maydonini kengaytiruvchi kontseptosferalar *qanoat, hamd, rozi bo’lish, xursand bo’lish, rahmat aytish, minnatdorchilik* kabi leksemalari islom dinining muqaddas kitoblarida keng qo’llanilgan. Bu kontseptosferalar kontseptual tuzilmani tashkil qiladi hamda nutqda uslubiy vazifani bajaradi. Qur’on Karim suralarinig ayrimlarida *shukr* leksemasi ideografik sinonimlar bilan ham ifodalangan. Masalan, *hamd, shukurona, minnatdorchilik* singari.

Shukr leksemasi bilan bog’liq freymlar islomning muqaddas kitobida Alloh tilidan bayon qilinib, bandalarga da’vat sifatida ko’p o’rinlarda qo’llanilgan. «**Yana Rabbingiz e’lon qilgan (bu suzlar)ni eslangiz: Qasamki, agar (bergan ne’matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu. noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir***». (Ibrohim surasi 7)

“Shukr” kontseptining freym strukturası Qur’on va hadislarda insonda o’zidagi moddiy va ma’naviy ne’matlar haqida ko’p mulohaza qilish, ularga berilgan taqdirda qanday holatda bo’lishini tasavvur etish, o’zidan qashshoqroq, qiynganganroq, kishilarni yodga keltirish insonni o’zidagi ne’matlar uchun Allohga shukr qilishga undaydi. Bu ish in’om etuvchiga ham manzur bo’lib, ne’matning yanada ziyoda bulishiga sabab bo’ladi va boshqa semalarning uyg’unligini ifodalaydi.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, *shukr* kontseptining sinonimik qatori kontekst tarkibida insonning ichki va tashqi ruhiy olami, shuuriga qo’zg’atuvchi signal kommunikatsiyasini tashuvchisi hisoblanadi. Albatta, bu bir vaqtning o’zida yuz beruvchi jarayon hisoblanib, qo’zg’atuvchi va chaqiruvchi signalni inson tomon yo’naltiradi. Chunki suralardagi shukr leksemasi inson faoliyati bilan bog’liq qo’zg’atuvchanlik va Allohga va u bergan ne’matlarga bo’lgan munosabatlarda ongli bo’lishga chaqirish ma’nolarini ifoda etadi.

Keltirilgan suralarda “Shukr” kontsepti qo’llanishi jihatdan pragmatik ma’noga ham ishora etadi. Ya’ni, shukr leksemasi inson ruhiyati, tafakkurida Allohdan xursand bo’lish, bergenlaridan, hayotidan minnatdor bo’lish belgisi sifatida gavdalanadi. Chunki inson Allohnинг bergenlariga shukr qilsa yaratguvchi undan rozi bo’lishini, shukriga yarasha so’raganlarini yanada ziyoda qilib berishini biladi.

Aytish kerakki, tilda konnotatsiyaning mavjudligi, rang barangligi, barqarorligi tilning nechog’lik boyligining qadimiyan analarga sohibligining, ifoda imkoniyatlari sarhadsizligining, ta’sir va tasvir quvvatining o’tkirligining dalolatidir [7]. Qur’oni Karim, hadis va diniy rivoyatlarning matnlarini o’rganib chiqilganda asosiy kognitiv urg’u boshqa tushunchalar qatori shukr freymiga ham tushadi. Umuman olganda diniy tushunchalar ham o’ziga xos semantik maydon va kontseptual tuzilmalarga ega hisoblanadi. Ularning har biri alohida tadqiqot mavzusi bo’la oladi.

Matnning antropotsentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvni natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada ayniqsa yaqqol namoyon bo’ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda

TILSHUNOSLIK

matnning **matn tuzuvchi – matn – retsipyent**dan iborat uchlik [7] nuqtai nazaridan tadqiq etilishi shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Masalan, Oysha onamizdan (roziyallohu anho) rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): «Farzandlaringizga munosib onani ixtiyor qilinglar», deganlar. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) marhamat qilib aytadilar: ﷺ يَعْلَمُ مَنْ يَرِدُهُ اللَّهُ أَعْلَمُ بِمَا بَيْنِ أَرْجُونَهُ وَأَنْتَ أَعْلَمُ بِمَا بَيْنِ أَرْجُونَكَهُ Ya'ni: «Kishining o'z farzandini chiroyli odob-axloq bilan tarbiyalashi ko'p miqdordagi nafl sadaqa berishidan yaxshiroqdir» (Termiziyy rivoyati). Shunday ekan, azizlar, barchamiz farzandlarimizning chiroyli tarbiyasi, kamoloti uchun soliha, fahm-farosatlari, diyonatli jufti halol tanlashimiz lozim ekan. Olim ulamolarimiz tomonidan yozilgan diniy mazmundagi kitob va risolalar, diniy sayt va kanallarda, gazeta nashrlarida berib borilayotgan maqolalar orqali ritsipentlar diniy bilimlarni o'qib o'zlashtiradilar. Zero, psixolingvistikating vazifalaridan biri til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan uyg'unlikda o'rganishdan iboratdir. Psixologiyaga doir adabiyotlarda inson emotsiyasi affekt (kuchli, lekin qisqa muddatli emotsiional reaktsiyalar), hissiyot (uzoq va turg'un emotsiional munosabat), kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo'lib o'rganiladi[18]. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v davrida islam dining g'oyalari, Alloh tomonidan buyurilgan amallar, ularning bajarilish tarkibiga oid suhbatlar payg'ambar va sahabalar hamda oddiy xalq o'rtasida tez tez bo'lib turgan. Odamlar bilmagan va tushunmaganlarining diniy hukmini suhbat jarayonida so'rashgan. Bu o'rinda diniy diskurs yuzaga kelgan. Masalan, Ibn Abbas roziyallohu anhumodan rivoyat qilinishicha, bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Jabroil alayhissalom bilan Safo tog'iqa chiqdilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

– Ey Jabroil, sizni haq ila jo'natgan Zotga qasamki, bu oqshom Muhammadning oilasida na arpabodyon va undan ziyodasi bo'lmadi.

Janob sollallohu alayhi va sallam so'zlarini tugatib ulgurmasdan samoden ovoz keldi.

– Alloh qiyomat qoim bo'lishiga amr qildimi? – so'radilar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam.

– Yo'q, u – Isrofil. So'zlarining eshitib huzuringizga keldi.

Isrofil alayhissalom kelib so'z boshladgi:

– Darhaqiqat, Alloh azza va jalla sizning so'zlarining eshitib, menga yerning kalit-larini berib huzuringizga jo'natdi. Menga buyurdiki, agar istasa, tuproqni zumrad, yoqut, oltin va kumushga aylantirib beraman. Xohlasa, podshoh payg'ambar bo'lasiz, xohlasangiz, banda bo'lasiz.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam javob berdilar:

– Payg'ambar banda bo'lishni istayman. Payg'ambar banda bo'lishni istayman. Payg'ambar banda bo'lishni istayman. ("Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hayotidan lavhalar" kitobidan).

Ibn Umardan rivoyat qilinadi:

Umarga "O'zingizga o'rinbosar qoldirmaysizmi?" deyildi. Umar: "Agar (o'rnimga o'rinbosar tayinlashni) tark etadigan bo'lsam, darhaqiqat mendan yaxshiroq inson – Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham (bu ishni) tark qilgan edilar. Agar o'rinbosar tayinlaydigan bo'lsam, haqiqatda mendan yaxshiroq kishi — Abu Bakr o'rinbosar tayin qilgan bo'lar edi", dedi. (*Musnadi Keshiy kitobidan*). Mazkur muloqtlarda diniy diskurs vaziyatini ko'rishimiz mumkin. Bir necha kishilik og'zaki muloqot jarayoni verballashgach g'oyalari, maqsadlar, niyatlarni yuzaga chiqardi.

XULOSA

Ta'kidlash keraki, islam diniga e'tiqod qo'ygan insonlarda Alloha mehr qo'yish, uning kuch qudratiga ishonish, Qur'oni Karimda buyurilganlar va payg'ambarning sunnatlariga amal qilish borasida gutqiy va axloqiy qarashlar mavjud bo'lib, bu nutq va amallar orqali yuzaga chiqadi. Bu toifadagi insonlarning boshqalardan munosabatlardagi farqi ham shunda. Inson omili mana shu yerda ko'rindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкоznании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқики йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.
3. http://ph.ras.ru//elib_0215.html: Новая философская энциклопедия.
4. Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 8.
5. Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – М., 2001. – Т.1. – С.72-81.
6. Сафаров Ш. Прагматингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси”, 2008. – Б. 35.
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқики йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
8. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5.
9. Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: ИГУ, 2001. – №1. – С.60.
10. Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.
11. Sperber, D. Rethinking symbolism. Cambridge University Press, 1975.
12. Мирзаева Ш. Диний матнларда “сабр” концептининг лингвокогнитив тадқики. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108
13. Минский М.Остраумие и логика когнитивного бессознательного //Новое в зарубежной лингвистике .Вып.X111:Когнитивные аспекты языка.-М.:Энергия,1988.-С.289.
14. Караполов Ю.Н.Русский язык и языковая личность.-М.:Наука ,1977.-420.
15. Мирзаева Ш. Диний матнларда “сабр” концептининг лингвокогнитив тадқики. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108.
16. Ш.Юсупова “Ўзбек тилига хос асосий диний концептлар ҳақида”. FarDU ilmiy xabarlar. 2-2020.
17. D.Yuldasheva . Матнда аллюзив номларнинг ифодаланиши. FarDU ilmiy xabarlar. 4-2021.
- <https://journal.fdu.uz>
18. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.
19. Шербатых Ю.В. Общая психология. – СПб.: Питер, 2008. – 272 с.